


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

*60811500 – Zooinjeneriya (turlari bo‘yicha)
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari*

Toshkent



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022 yil «7» 07 dagi 3 - sonli yig‘ilishida ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022 yil «19» 07 dagi 233 -sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

Mazkur malaka talabi “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalari”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. 60811500-Zooinjeneriya (<i>turlari bo'yicha</i>) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi	4
1.1. Qo'llanish sohasi	4
1.1.1. 60811500 - Zooinjeneriya (<i>turlari bo'yicha</i>) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. 60811500- Zooinjeneriya (<i>turlari bo'yicha</i>) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1. 60811500- Zooinjeneriya (<i>turlari bo'yicha</i>) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2. 60811500 - Zooinjeneriya (<i>turlari bo'yicha</i>) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari	5
1.2.3. 60811500- Zooinjeneriya (<i>turlari bo'yicha</i>) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4. 60811500- Zooinjeneriya (<i>turlari bo'yicha</i>) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy vazifalari	5
2. 60811500- Zooinjeneriya (<i>turlari bo'yicha</i>) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	6
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	7
Bibliografik ma'lumotlar	8
Kelishuv varag'i.....	10

1. 60811500 – Zoojneneriya (turlari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi

60811500 - Zoojneneriya (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi.

1.1.1. 60811500 - Zoojneneriya (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi

Malaka talabi 60811500 - Zoojneneriya (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilar:

- mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv-uslubiy boshqarma (bo‘limi) boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilar;

- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shakslar.

1.2. 60811500 - Zoojneneriya (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 60811500 - Zoojneneriya (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari:

60811500 – Zoojneneriya (turlari bo‘yicha) –“Qishloq xo‘jaligi” ta’lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib, qishloq xo‘jalik hayvonlarini urchitish; naslchilik ishini olib borishni, ularning irsiyat va o‘zgaruvchanlik belgilarning nasldan-naslga berilishini biometrik tahlil qilish; chorva mollari uchun to‘la qiymatli oziqlantirishni tashkil etish va mustaxkam ozuqa bazasini yaratish; chorvachilik uchun bino va inshoatlarini loyihalashtirish; chorva mollarini saqlash va molxonalarda mikroiqlim ko‘rsatgichlarini ta’minlash; go‘sht, sut, tuxum, teri, jun, baliq, mo‘yna, asal, pilla va boshqa ikkilamchi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash, qayta ishslash va standartlash; chorvachilikda qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalarini joriy etish; otlarni mashq qildirish; chorva mollari kasalliklari va ularni oldini olishni bilish; chorvachilikda veterinariya sanitariya tadbirlarini amalga oshirish; chorvachilik mahsulotlaridan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish;; chorvachilik sohasi va xo‘jaliklarning iqtisodiy samaradorligini hisob-kitob qilishni amalga oshirish bilan bog‘liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60811500 - Zooinjeneriya (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- zooinjeneriya tizimidagi jarayonlar, Respublika Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Respublika "O'zbekchorvanasl" agentligi, viloyat va tuman hududiy "Chorvanasl" markazlari, Respublika ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi, "Qorako'lchilik va yaylov xo'jaligini rivojlantirish" uyushmasi, viloyat va tuman hududiy "Qorako'lchilik" uyushmalari, Respublika "O'zbekbaliqsanoat" uyushmasi, viloyat va tuman hududiy "Baliqsanoat" uyushmalari, Respublika "O'zbek asalarichilari" uyushmasi, hududiy "Asalarichilar" uyushmalari, viloyat va tuman hududiy "Agropilla" uyushmalari;

- zooveterinariya shaxobchalari, sun'iy urug'lantirish punktlari; qoramol, qo'y, parrandalar, yilqi, tuya, echki, quyon, asalari, baliq, pilla qurti, cho'chqa va mo'ynali hayvonlarini urchitishga ixtisoslashgan xo'jaliklar; chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan xo'jaliklar va korxonalar; omuxta-yem ishlab chiqarish zavod va korxonalar; ilmiy-tadqiqot jarayonlari;

- 60811500 - Zooinjeneriya (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan majburiy fanlar va tanlov fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. bakalavriyatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60811500 - Zooinjeneriya (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;
- axborot-tahliliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- tadbirkorlik.

1.2.4. 60811500 - Zooinjeneriya (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari

60811500 - Zooinjeneriya (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- tashkilot va korxonalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy bilimlarni qo'llash orqali boshqarish;
- tashkilot, korxona va ularning alohida bo'linmalarini tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat faoliyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;
- birlamchi ishlab chiqaruvchi bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyatga tadbiq etish, ishlab chiqarish jarayonini sifatli tashkil etish.

Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida:

- korxonalar tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;
- zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish;
- ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalariga investisiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo‘llash, investitsion loyihalarni ishlab chiqish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish;
- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma’lumot to‘plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;
- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yuritish;
- loyihalar samaradorligini baholash;
- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash;
- boshqaruv qarorlarining samaradorligini tahlil etish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish usullari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ishtirok etish;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta’minalashda, mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o‘rganish;
- tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish tizimini ta’minalash borasidagi muammoli mavzular bo‘yicha axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tadbiq etish.

Tadbirkorlik faoliyatida:

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;
- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. 60811500 – Zoojneneriya (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr larning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;

- strategik va operatsion boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;

- qoramol, qo'y, parrandalar, yilqi, tuya, echki, quyon, asalari, baliq, pilla, cho'chqa va mo'ynali hayvonlarini urchitish, saqlash, oziqlantirish, chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishslash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan zootexniyaviy tadbirlarini amalga oshirish uquviga ega bo'lish;

- chorva mollari va parrandalar orasida uchraydigan turli kasallikkarni oldini olish chora tadbirlarini tashkil etish;

- yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tadbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lish.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, uqib-o'rghanish natijalari, o'quv davri zooinjeneriya, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatini baxolash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayoni.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQDI:



Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
Chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Rektor X.B. Yunusov

2022 yil « ____ » _____

M.O.

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'limgazalarini
huzuridagi Oliy ta'limini rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarini
tadbiq etish markazi

Direktor Sh. Yakubov

2022 yil « ____ » _____

M.O.

O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va
chorvachilikni rivojlantirish davlat
qo'mitasi

Rais B.T. Norqobilov

2022 yil « ____ » _____

M.O.

Toshkent davlat agrar
universiteti

1-prorektor S.Y. Islomov

2022 yil « ____ » _____

M.O.



Chorvachilik va parrandachilik
ilmiy-tadqiqot instituti

Direktor A.A. Nurmatov

2022 yil « ____ » _____

M.O.

